

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC  
INNOVATIVE RESEARCH”**

**Volume 11. November 2024**

**Mashg‘ulotlarda bolalarni milliy qadriyatlar vositasida xulq madaniyatini  
shakllantirish**

**JDPU Sirtqi bo‘lim  
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi  
2-bosqich talabasi Tajiboyeva Nigora**

**Annotasiya:** Ushbu maqoladamaktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni qadriyatlar vositasida xulq madaniyatini shakllantirish yo‘nalishlari va yo‘llari haqida yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** milliy ,qadriyatlar, xalq, bola ,oila ,tarbia mashg’ulot, o‘yin,sayr,

**Аннотация:** В данной статье дети в дошкольных образовательных учреждениях выделены направления и способы формирования культуры поведения посредством ценностей. Ключевые слова: национальный, ценности, человек, ребенок, семья, воспитание, обучение, игра, прогулка,

**Abstract:** In this article, children in preschool educational institutions highlight the directions and methods of forming a culture of behavior through values.

**Key words:** national, values, person, child, family, education, learning, game, walk,

O‘zbek xalqi madaniyatining ildizi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Bizning xalqimiz o‘zining butun hayoti davomida e兹gulikka intilib , bunyodkorlik ishlarini amalga oshirib kelgan. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni har tomonlama shakllangan, barkamol shaxs qilib tarbiyalash maqsadida amalga oshiriladigan ta’lim-tarbiya jarayonining o‘ziga xos yo‘llari mavjud. Maktabgacha yoshidagi bolalarda asosan, mashg’ulotlar, o‘yin, s ayr, kuzatishlar turli faoliyat jarayonida xulq madaniyati shakllantiriladi. Milliy qadriyatlrimiz bo‘lmish an’analar davomida bolalarning fikri, qarashlari, his-tuyg’ulari, xohishi, irodasi, tafakkuri, dunyoqarashi, xulq madaniyati rivojlanib boradi. Maktabgacha yoshidagi bolalar xulq madaniyati, ularning ongli faoliyati, bilim saviyasi, e’tiqodi – tarixiy tajribalarga, an’analar, udumlar va urf-odatlarga munosabati darajasida tarkib topadi va egallangan nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalar turmush faoliyatida, o‘zining jamoatchilik, bog‘cha, oila, do‘stlari oldidagi burch va vazifalarini bajarishlarida namoyon bo‘ladi.

# “CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 11. November 2024

Milliy qadriyatlarimiz bo‘lmish an’analar, udumlar va urf-odatlarni o‘rganish, oila, bog’cha, jamoatchilik hamda mahallalarda qiziqarli holda amalga oshiriladi. Kichkintoylar shaxsining ma’naviy ehtiyojlarini, qiziqishlarini va manfaatlarini qondirish uchun imkoniyat yaratadi. Maktabgacha yoshidagi bolalarda milliy qadriyatlar vositasida oilaviy, maishiy xulq madaniyatini shakllantirishda ijtimoiy ong, yaratiladigan madaniy muhit, amalga oshiriladigan faoliyat turlarida pedagogik shart-sharoitlarga amal qilish talab etiladi. Bular: - milliy qadriyatlarni o‘rganishda o‘zaro samimiy muloqot, bir-birini hurmat qilish; - madaniy muhit yaratishda sog’lom psixologik sharoit yaratish, zo’riqish, majburlash, rejaga to‘liq amal qilishga chek qo‘yish, ya’ni faoliyatning rangbarangligi, mazmunan boyligiga e’tibor berish. Tadbirlarni bolalarning talab va ehtiyojiga, qiziqishiga qarab quyidagicha tashkil etish:

- faoliyat jarayonida to‘g’ri maqsad qo‘ya olish;
- madaniy muhit, faoliyatni bolalardagi madaniy, xulqiy, ruhiy qadriyatlar shakllanishiga yo‘naltirish;
- faoliyat mazmuni, shakli, uslubi, usuli va vositalari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlashdan iborat.

Bolalar ma’naviy dunyosining o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri – kattalarni obro‘li inson, namuna deb bilishlari, maslahat olishlari, taqlid qilishlari va lozim bo‘lgan paytda har qanday yordamni olishlariga ishonch hosil qilishlari. Masalan: milliy qadriyatlarimizdan biri bo‘lgan mehmon kutish qoidalarini olaylik. Har bir xonadonga, albatta, mehmon kelib turadi. Uyga mehmon kelganda qo‘liga suv quyib yuvdirganlar, ketishdan oldin ham qo‘llariga suv quyib kuzatganlar. Qo‘lini yuvgach, mehmonlar “Rahmat, baraka top, murodingga yet” deb duo qilishgan. Shunday iboralar haligacha saqlanib kelinmoqda va avloddan - avlodga o‘tib, ular ongiga singib ketgan. Yoki mehmon kelsa, oyoq kiyimini o‘ngarib, tartibli qo‘yishi, ketayotganda “Xush kelibsiz, yana kelib turing!” kabi iboralar bolalarni tarbiyalab boradi.

Oilaviy va madaniy-maishiy xulq madaniyatini oshirishning samarali yo‘llari ota-onalarning bolalarga sarflagan vaqtлari bilan emas yoki tarbiyachining bunda kunning o‘tishigagina emas, balki ularning tarbiyasiga, oilaning turmush tarziga, jamoatchilik obro‘si va shaxsiy namunalariga bog’liq. Oiladagi ota-onalar, bog’chadagi tarbiyachi va boshqa xodimlar, hatto katta yoshdagi opa-ukalar hamda singillarning o‘zaro munosabatlari xulq madaniyatining boshlan0ich shakllanishida o‘ziga xosligini ko‘rsatadi. Bolalarda xulq madaniyatini shakllantirishda an’analar, udumlar, urf-odatlar

# **“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”**

**Volume 11. November 2024**

muhim vosita sifatida yordam beradi. Bunday an'analar, udumlar va urf-odatlarning bolalarga namuna ko'rsatadigan tarbiyaviy ta'sirlari saviyasini anaiqlashda quydagilarga e'tiborni qaratdik: - bolaning familyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili, oila a'zolarining soni, nechanchi farzand ekanligi, oilada ko'pincha qanday an'analar tez-tez bo'lib turishini bilish; - oiladagi tadbirlarning nomi, oila a'zolarining bo'sh vaqtlarida nima bilan shug'ullanishlari, ularning hunarlari, iqtisodiy tarbiyaga oida olib boradigan ishlari; - oilada bolalarga kim ko'proq e'tibor beradi, ertak, rivoyat aytuvchi kim? Oila a'zolarining o'zaro bir-birini hurmat qilishi, kiyinishi, oila muammolarini hal etishda bolalarning ishtirok etish, etmasligi va hokazo. Bunday samarali yo'llar bolalarni boshqalarga hurmat-ehtirom bilan muomala qilish, madaniyatli bo'lishda asosiy rol o'ynaydi. Natijada, milliy qadriyatlar vositasida yurish-turish, o'zini tuta bilish, madaniy muomalada ijobiy sifatlar tarkib topadi. Bu xislatlar nazarimizda bolalari bilan do'st, ularga diqqat-e'tibor bilan qaraydigan, qayg'ulariga hamdard, xursandchiliklarini baham ko'ruvchi, sabr-toqatli ota-onalar bo'lgan oilalarda mustahkamlanadi. xulq madaniyatini shakllantirish quydagi yo'nalishlarda bajarilsa, uning samaradorligi yanada oshadi: - bog'cha o'zining barcha tarbiyaviy faoliyatini oiladagi tarbiya jarayoniga izchil yo'naltira olsa; - tarbiyachilar jamoasi oila bilan o'zaro hamkorlikda milliy qadriyatlar asosida xulq madaniyatini tarbiyalash talablarini to'g'ri tashkil eta olsa; - mahalla, bog'cha, oila, xalq ta'limi bo'limi jamoatchilikni tarbiya jarayonida bir maqsadga yo'naltira olsa; - oila an'analarini, udumlari va urf-odatlaridan foydalanishda bog'cha va tarbiyachilar hamda bolalar hamkorligi o'rnatilsa.


Bu masalalarni ijobiy hal etishda bog'cha xodimlari, mahalla qo'mitasi, xalq ta'limi bo'limlarining tarbiyaviy imkoniyatlari kengayayotgan davrda chnada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Demak, mamlakatimizda umumiylar ta'lim-tarbiya mazmunini sifat jihatdan tibdan isloh qilish, aniqrog'i, yangilash asosida bolalarni har tomonlama kamol toptirish uchun alohida tarbiyaviy bilim berishni har qachongidan ham yuqori saviyaga ko'tarish bizning muqaddas burchimiz.

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC  
INNOVATIVE RESEARCH”**

**Volume 11. November 2024**

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

- 1.O‘.Otabalieva. Bola tarbiyasida bog’cha va oila hamkorligi. Qo‘llanma –1994.
2. S.X.Jalilova, S.M.Aripova. Maktabgacha yoshdagি bolalar psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma.Toshkent-Faylasuflar-2013.
- 3.G.R.To‘xtasinova vb. Bolalar bog’chasida intellektual o‘yinlar. Yandi asr avlodi. T.-2005
4. Bolaga yonaltirilgan ta’lim dasturini tashkil etish. O‘zRXTB. MMXQTMORO‘- MM.2012



**Research Science and  
Innovation House**